

Fred Hutchinson Cancer Center  
University of Washington

**Ilmiy tadqiqotda ishtirok etish uchun qisqa rozilik shakli**

Protokol raqami: \_\_\_\_\_

Yetakchi tadqiqotchi ismi: \_\_\_\_\_

*Agar siz bolaga ushbu tadqiqotda rozilik beruvchi qonuniy vakolatli vakil, ota-ona/vasiy sifatida xizmat qilayotgan bo'lsangiz, "siz", "sizni", "sizga" va "sizning" atamalari siz tomoningizdan rozilik berilayotgan shaxsni anglatadi.*

**Sizdan ilmiy tadqiqotda ishtirok etish so'ralmoqda.** Bu tadqiqotda qatnashish yoki qatnashmaslik haqida shoshilmay qaror chiqarishingiz kerak. Qaroringizni xohlagan odamingiz bilan muhokama qilishingiz mumkin.

Qatnashish yoki qatnashmaslik haqida qaror chiqarishingizdan oldin quyidagilarni tushuntiramiz:

1. Tadqiqotda qatnashish yoki qatnashmaslikka qaror qilishingiz sabablari haqida asosiy ma'lumot;
2. Nima uchun tadqiqot olib borilmoqda, nimalar sodir bo'ladi va tadqiqot qancha davom etadi;
3. Qaysi protseduralar tajribaviy;
4. Tadqiqotga qo'shilishning oldindan ko'rsa bo'ladigan xavflari, noqulaylik va foydalari;
5. Tadqiqotda qatnashish uchun har qanday ehtimoliy foydali muqobillar; va
6. Shaxsiy ma'lumotlaringiz daxlsizligi va maxfiylikingiz qanday himoyalaniishi.

Tegishli hollarda quyidagilarni ham tushuntiramiz:

1. Tadqiqotda shikastlansangiz, mavjud kompensatsiya yoki tibbiy muolaja variantlari;
2. Biz hali bilmaydigan xavflar ehtimoli;
3. Siz nima uchun tadqiqotdan chetlatilishingiz mumkinligi;
4. Tadqiqotda ishtirok etish uchun har qanday xarajatlar;
5. Tadqiqotni tark etishiga qaror qilsangiz, nima bo'lishi;
6. Qachon tadqiqotga oid yangi natijalar haqida bilib olishingiz;
7. Tadqiqot uchun necha kishi rejalashtirilgani;
8. Sizdan olingan ma'lumotlar va bionamunalar (qon va to'qima singari) tadqiqotda va kelgusi izlanishlarda qanday ishlatilishi va sizning bionamunalaringizdan foydalanib ishlab chiqilgan mahsulotlardan daromad olish yoki olmasligingiz;
9. Bionamunalarigizda to'liq genom ketma-ketligi aniqlanadimi;
10. Siz va sog'lig'ingiz borasidagi tadqiqot natijalari sizga ulashilishi yoki ulashilmasligi; va
11. Sizdan qatnashish so'ralishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy tadqiqotlar.

Bundan tashqari, agar tadqiqot [clinicaltrials.gov](http://clinicaltrials.gov) saytiga joylanadigan bo'lsa, sizga quyidagilarni tushuntiramiz:

Ushbu klinik tekshiruv ta'rifini AQSH qonunchiligida talab qilinganidek <http://www.ClinicalTrials.gov> saytidan olish mumkin bo'ladi. Bu veb-sayt sizni aniqlash mumkin bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi. Ko'pi bilan bu veb-sayt natijalar xulosasini o'z ichiga oladi. Siz istalgan vaqtda ushbu veb-saytda qidiruvni amalga oshirishingiz mumkin.

## Huquqlaringiz

Ushbu tadqiqotga qo'shilishga majbur emassiz. Siz ha yoki yo'q deyish erkinligiga egasiz. Agar siz ushbu tadqiqotga qo'shilsangiz, unda qolishga majbur emassiz. Siz istagan vaqtda to'xtatishingiz mumkin (hatto boshlashdan oldin ham). Yo'q deganlik yoki to'xtatganlik uchun jarima solinmaydi. Muntazam tibbiy yordamingiz o'zgarmaydi.

Agar bu tadqiqot davomida kasal bo'lib qolsangiz yoki shikastlansangiz, bu shaklni imzolash orqali to'lov so'rashga bo'lgan qonuniy huquqlaringizni yo'qotmaysiz.

Agar qo'shilishga rozilik bersangiz, sizga bu shaklning nusxasi va bu tadqiqot uchun ingliz tilidagi rozilik shaklining nusxasi beriladi.

## Batafsil ma'lumot uchun

Bu tadqiqot yoki tadqiqotga aloqador shikastlanish haqida savollaringiz bo'lsa, quyidagi kontakt ma'lumotlari orqali istalغان vaqtda yetakchi tadqiqotchiga murojaat qilishingiz mumkin:

\_\_\_\_\_.

Agar tadqiqot subyekti sifatida huquqlaringiz to'g'risida savollaringiz bo'lsa Fred Hutchinson Cancer Center idorasidagi Institutional Review Office direktoriga 206.667.5900 telefon raqami yoki [irodirector@fredhutch.org](mailto:irodirector@fredhutch.org) email manzili orqali murojaat qilishingiz mumkin.

## Imzo

Bu shaklni imzolasangiz, bu sizga tadqiqotni tasvirlab berganimiz va ishtirok etishga ixtiyoriy tarzda rozilik berganingizni anglatadi.

\_\_\_\_\_  
Ishtirokchining bosma shakldagi ismi va imzosi  
yoki, tegishli hollarda, qonuniy vakolatli vakil

\_\_\_\_\_  
Sana

\_\_\_\_\_  
Tegishli hollarda, qonuniy vakolatli vakilning ishtirokchiga aloqasi

\_\_\_\_\_  
Og'zaki tarjimon/guvohning bosma shakldagi ismi  
va imzosi

\_\_\_\_\_  
Sana